Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	



“IJTIMOIY HIMOYA” KATEGORIYASIGA QARATILGAN NAZARIY QARASHLAR EVOLYUSIYASI

Bobonov N.H

Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy Universiteti

Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish kategoriyasi bo'yicha klassik iqtisodiy maktab vakillari, Markaziy Osiyo hamda mamlakatimizning yirik iqtisodchi olimlar fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, turmush farovonligi, aholiga ijtimoiy yordam, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy kasallik, ijtimoiy nochor guruh, aholining muhtoj qatlamlar, kam ta'minlanganlik, ijtimoiy kafolat, kambag'allar, uysizlar, ko'cha bolalari va ko'cha ayollari, ta'lim dasturlari.

Abstract: This article presents the views of representatives of the classical economic school, scholars from Central Asia, and leading economists of our country regarding the category of social protection for the population.

Key words: social protection, well-being, social assistance for the population, social policy, social diseases, socially vulnerable groups, needy segments of the population, low-income status, social guarantees, the poor, the homeless, street children and street women, educational programs.

Аннотация: В данной статье приведены мнения представителей классической экономической школы, ученых Центральной Азии и ведущих экономистов нашей страны относительно категории социальной защиты населения.

Ключевые слова: социальная защита, благосостояние, социальная помощь населению, социальная политика, социальные болезни, социально уязвимые группы, нуждающиеся слои населения, малообеспеченность, социальные гарантии, бедные, бездомные, уличные дети и уличные женщины, образовательные программы.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ijtimoiy sohada yaqqol namoyon bo'ladi. Bu soha iqtisodiyotning yaxlit va o'zaro bog'liq qismidir. Ijtimoiy sohaning strategik maqsadi insonning to'laqonli turmush kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Ijtimoiy himoya qator fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Iqtisodiyot fanida ijtimoiy himoya aholi tirikchiligini moddiy vositalar bilan ta'minlash, kambag'allik, muhtojlikning oldini olish, ishchi kuchi sifatining pasayishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan o'rganiladi. Sosiologiya ijtimoiy himoyani insonning munosib turmush kechirishini va erkin rivojlanishini ta'minlash tizimi sifatida o'rganadi. Demografiya ijtimoiy himoya mamlakatda demografik vaziyatni muayyan darajada ushlab turishga ko'maklashadigan tizim sifatida tahlil etiladi va hokazo.

Hozirgi paytda “ijtimoiy himoya” etarli darajada to'liq o'rganilmagan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy himoya” tushunchasi ko'p hollarda aholining ijtimoiy jihatdan eng kam himoya qilingan va nochor qatlamlariga moddiy yordam, rahmdillik ko'rsatish bilan aynanlashtiriladi.

XVIII asr boshlari – XX asr o'rtalarida aholining ijtimoiy himoyasiga bag'ishlangan qator ilmiy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ularning ilmiy g'oyalari milliy boylikning manbai halol mehnatda ekanligi haqida edi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.Smit, T.Maltus, G.Spenser, D.Rikardo kabi klassik iqtisodiy maktab vakillari aholini ijtimoiy himoya qilish negizini insoniyatning mavjudligida deb bilishgan. A.Smit: “Milliy boylik o'sishi bilan ish haqi ham o'sishini, mehnatga haq to'lash tenglik va iqtisodiy maqsadga qarab belgilanishini taxmin qilgan hamda ularning barchasi sanoatni rivojlantiradi va aholining ko'payishiga yordam beradi, aholi sonining o'sishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosi va aholini ijtimoiy himoya qilishni kafolati hisoblanadi,”¹ – deb ta'kidlaydi.

T.Maltus o'zining “Nufus qonuni to'g'risida tajribalar” (1798) asarida tabiat qonunlari bilan ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi ziddiyatlarni tushuntirishga harakat qilgan. “Aholi soni oziq-ovqat mahsulotlarining cheklangan taklifiga duch kelguniga qadar geometrik progressiya ko'rinishida o'saveradi, oziq-ovqat mahsulotlari taklifi esa,

1 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Соцэкгиз, 1962. – С. 73-75.



arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi. "Nufus qonun"ida ijtimoiy himoya bevosita aholi sonining haddan tashqari o'sishiga bog'liq ekanligi aks ettiriladi. U rivojlangan sari aholi turmush farovonligi pasayishiga va ushbu holat muqarrar ravishda aholining bir qismini ijtimoiy himoyaga muhtojligiga olib kelishini taxmin qilgan. Aholi soni ko'p, oziq-ovqat mahsulotlari miqdori kam bo'lgan mamlakatda ijtimoiy himoya yuzaga keladi"². Olimning fikriga qisman qo'shilish mumkin. Covid-19 pandemiyasi aholi sonini kamaytirish bilan birga ularning daromadlari, jumladan, mamlakatda kambag'allar sonining oshishiga sabab bo'ldi.

J.Prudon g'oyasiga ko'ra, "...ishchilar ish haqini oshirish uchun kurashishi lozim, narxlarning ko'tarilishi esa, aholi qatlamida ijtimoiy himoyaga muhtojlar sonining ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, kambag'allik insoniyatning ajralmas yo'ldoshi bo'lib, ishlab chiqarish rivojlangan sari iste'mol ham oshib, ijtimoiy himoyaga muhtojlik vujudga keladi"³, deb ta'kidlaydi. J.Prudon "hayotiy ehtiyoj" mahsulotlari tarkibiga nafaqat yashash uchun zarur bo'lgan mahsulotlar, balki ushbu jamiyatda o'rta qatlam vakillari uchun standart hisoblangan mahsulotlarni ham kiritdi. Uning fikrlari bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatlarda iste'mol savati va iste'mol miqdorini ishlab chiqish jarayonida nafaqat hayotiy ehtiyojlar, o'rta qatlam iste'molida bo'lgan mahsulotlarni ham kiritish maqsadga muvofiq.

XX asrning 60-yillarida AQSh Ijtimoiy himoya boshqarmasi mutaxasisi M.Orshanski ".....uy-joy, kiyim-kechak va muhim hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqladi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashda byudjet so'rovnomasi ma'lumotlariga asoslangan holda Engel koeffitsientidan foydalandi. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari narxini aniqlab, o'rtacha oila daromadlariga mos keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlarini ifodalovchi ushbu koeffitsientning teskari ulushiga ko'paytirdi. Ushbu ijtimoiy himoyaga muhtojlikni aniqlash uslubiyati AQShda XX asrning 80-yillariga qadar ijtimoiy himoyaga muhtojlik chegarasini aniqlashda qo'llanilgan. 1970 yillarda jamiyatda odatdagi me'yoriy normalar uchun oilaning daromadi etarli bo'lmasa, ularni ijtimoiy himoyaga muhtoj sifatida e'tirof etish yondashuvi shakllandi⁴.

Angliyalik olim P.Taunsend "Buyuk Britaniyadagi kambag'allik" asarida (1979) nisbiy kambag'allikka quyidagicha ta'rif berdi: "...oilalar, shaxslar va ijtimoiy guruhlar aholi tarkibida me'yoriy norma sifatida qabul qilingan turmush tarzini qondirish va ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun etarli mablag'ga ega bo'lmasa, ularni ijtimoiy himoyaga muhtoj, deb hisoblash mumkin. Ularning daromadlari o'rta hol oila yoki shaxsning daromadidan kamroq bo'lib, jamiyatda qabul qilingan odatlar va faoliyat turlaridan chetlashtirilgan"⁵. Buyuk Britaniyada hukumat organlari muntazam ravishda rasmiy ijtimoiy himoyaga muhtojlik chegarasini davriy ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi. Ushbu rasmiy kambag'allikdan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoyaga muhtojlik chegarasi belgilanadi. P.Taunsendning ta'kidlashicha, ijtimoiy so'rovnomalar ko'rsatkichiga ko'ra Britaniyaliklarning 25 foizi ijtimoiy himoyaga muhtoj. Deyarli 50 foizi doimo ijtimoiy himoyaga muhtojlar qatlamiga tushib qolmaslikdan qo'rqib yashaydi. Ushbu holat sababini Taunsend kapitalistik tuzumda deb biladi. Umuman, muallifning iqtisodiy qarashlari hisob-kitoblarning mantiqiylikni tasdiqlaydi va ular nisbiy deprivasiya⁶ning muallif tomonidan yaratilgan sub'ektiv indeksiga asoslanadi. Taunsend "milliy daromad doimo uzluksiz o'saverishi mumkin emas, aholiga ijtimoiy yordam berish maqsadida milliy daromad aholi o'rtasida teng taqsimlanishi kerak"⁷, degan g'oyani olg'a suradi.

"XX asrning so'nggi choragida ijtimoiy himoya borasidagi ilmiy tadqiqotlarga e'tibor ijtimoiy eksklyuziyani"⁸ o'rganishga qaratila boshladi. Ushbu atama Rene Lenuar tomonidan iqtisodiy fanga kiritilgan bo'lib, aholining ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lganlar toifasini nazarda tutadi.

Jahonda ko'plab iqtisodchi olimlar kambag'allikni qisqartirish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Iqtisodiyot fani bo'yicha 2019 yilgi Nobel mukofoti laureatlari Abxijit Banerji, Ester Dyuflo va Maykl Kremerlar shular jumlasidandir. Ular aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha eksperimental ilmiy-tadqiqotlarni dala amaliyotini qo'llagan holda olib bordilar.

Maykl Kremer 1990 yillarning o'rtalarida hamkasblari bilan birgalikda G'arbiy Keniyada ta'lim sohasidagi katta ilmiy-tadqiqot dasturini boshladi. Ular aholini ijtimoiy himoya qilishning qanday choralari ta'lim jarayonini yaxshilashga yordam berishini o'rganishdi. Olimlar fikricha, ko'p xarajatlar talab qilmaydigan tibbiy chora-tadbirlar maktablardagi davomat va o'zlashtirishni yaxshilanishiga jiddiy ta'sir qiladi. Jumladan, bolalarni gijjalardan davolash – savodsizlikka qarshi kurashning oson va samarali usullaridan biri ekanligi aniqlandi. Gelmintoz bola salomatligi uchun yoqimsiz holat hisoblanadi. Amaliy tahlillar asosida M.Kremer ushbu kasallik jiddiy

2 Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселения. Мировая экономическая мысль. Сквоз призму веков. В 5 томах. Т.1. От зари цивилизации до капитализма.-М.Мысль, 2004. – С.410-420.

3 Прудон П.Ж. Бедность как экономический принцип. М. 1998. – С. 10.

4 Fisher M.G. Mollie Orshansky: Author of the Poverty Thresholds / M.G. Fisher // AMSTAT NEWS. – 2008.– September – P. 15-18. Режим доступа –<http://www.amstat.org/about/statisticiansinhistory/bios/OrshanskyMollie.pdf>

5 Townscnd P. Poverty in the United Kingdom. Berkeley: Univ. of California, 1979. – P. 31.

6 Депривация- махрумлик. Физиологик ёки ижтимоий эҳтиёжларни қондириш имкониятини қисқартириш ёки тўлиқ махрум этиш.

7 Hanbook for sociology teachers / R.Goom, P.McNeill (eds.). London: Heinemann Educational Books Ltd.,1982. – P. 129

8 Эксклюзия- чеклаш. Шахснинг меҳнат, таълим ва ҳ.қ. ҳаётий муҳим институтларига киришни истисно қилиш ёки чеклаш.



muammo bo'lib, kasallikka chalinish tufayli bolalarning yomon o'qishlari, davomatning past bo'lishini isbotlab berdi. Bolalar gijja kasalligidan davolansa, ularning salomatligi yaxshilanib, bilim darajasi ham o'sadi. M.Kremer "....yiliga bor-yo'g'i 3,5 dollar turadigan vaksinasiyani qo'llash bolalarni maktabga borishga undashning boshqa usullaridan samaraliroq ekanini isbotlab berdi"⁹.

A.Banerji va E.Dyuflor ta'lim dasturlarining samaradorligini qashshoq mamlakatlar, jumladan, Hindiston misolida o'rganishdi. Ular o'zlashtirishdan orqada qolayotgan bolalarning repetitorlar bilan o'tkazilgan qo'shimcha darslari katta ijobiy natijaga egaligini ko'rsatish orqali ta'lim sifatining yaxshilanishini aniqlashdi¹⁰.

Hindistonda 5 milliondan ortiq bola A.Banerji va E.Dyuflor tadqiqotlari sababli korreksion ta'lim dasturlarini tamomlay olishdi. Kremerning ko'plab mamlakatlarda olib borgan tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalari tufayli maktab yoshidagi bolalar kasalliklarini davolashga davlat tomonidan subsidiyalar ajratila boshlandi¹¹.

"Ijtimoiy himoya" tushunchasiga bo'lgan talab 1993 yilda, ilmiy adabiyotlarda sezila boshlagan. "Ijtimoiy himoya" atamasining ishlatilishi MDH mamlakatlarida "qayta qurish" nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy davr bilan bog'liqdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish (1991-1992 yillar) dasturlari qabul qilinganidan so'ng ushbu tushuncha hukumat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi va ustunligi sifatida xarakterlangan. Shu bilan birga, mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga doir qator uslubiy yondashuvlar mavjud.

XXI asr bo'sag'asida iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy himoya bo'yicha bir qancha nazariy va empirik tadqiqotlar faollashib bordi. Jumladan, N.M. Rimashevskaya 1990 yillarda ijtimoiy himoya muammosi jahon iqtisodiyotining global muammolaridan biriga aylanishini bashorat qilgan edi. Uning fikricha, "Muammoning murakkabligi shundan iboratki, yaqin yillarda aholi tarkibidagi bolalarning uchdan ikki qismi va keksalarning uchdan bir qismi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga aylanadi. Ushbu holat, jumladan, bolalarning ijtimoiy himoyaga muhtoj darajaga tushishi kelajak avlodning turmush sifatini pasayishiga va genofondning zaiflashuviga olib keladi. Ijtimoiy himoya, ishsizlik, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik, orzu-umidlar va rejalarining amalga oshmasligi, aholining marginallashtirish jarayonini kuchaytiradi"¹², – deb ta'kidlaydi. Muallif "ijtimoiy tubni" tashkil etadigan quyidagi aholi guruhlarini aniqlaydi: kambag'allar, uysizlar, ko'cha bolalari va ko'cha ayollari. Qashshoqlik kabi muammolar aholi tarkibida "ijtimoiy tub"ning shakllanishi va mustahkamlanishiga yordam beradi. "Ijtimoiy tub" vakillari – ijtimoiy resurslar barqaror, ijtimoiy foydali xizmatlar olishdan mahrum insonlardir. Uning fikriga ko'ra, "bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi, uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa, mehnat jarayonining va ishchi kuchini takror hosil qilishning beto'xtovligini ta'minlashga xizmat qiladi"¹³.

B.V.Rakitskiyning fikricha, "Ijtimoiy himoya hukumat tomonidan olib boriluvchi siyosiy vazifalarni, milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik shartlarini ta'minlaganda amalga oshiriluvchi tizimdir"¹⁴. Biz ham mazkur yondashuvlarni to'la qo'llab quvvatlaymiz va u faqat ijtimoiy himoya institutlarining rivojlanishi va saqlanib qolishida muhim o'ringa ega, deb hisoblaymiz.

E.V. Tishinning fikricha, "Aholining ijtimoiy himoyasi murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan aholining daromad, hayot darajasini ta'minlash faoliyatidan iboratdir. Ijtimoiy himoya mavjud huquqiy hujjat, pul va moddiy resurslar bazasida amalga oshirilib, tashkiliy ishlarni taqozo etadi"¹⁵. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy himoyaga bo'lgan bunday yondashuv uni biroz toraytiradi va aynan murakkab hayotiy vaziyatda bo'lgan insonlar tomon yo'naltiriladi. Shu o'rinda qanday holatlarni murakkab hayotiy vaziyat deb yuritish mumkinligi muallif tomonidan yoritib berilmagan.

Iqtisodchi olim A.N.Averin "Ijtimoiy himoya" atamasining turlicha talqinini uchratish mumkin. Masalan, ayrim mualliflar ijtimoiy himoya deganda, "xodimlarga shaxsiy mehnat ulushi, iqtisodiy erkinligi va tadbirkorligi hisobiga o'z farovonligini oshirishga teng imkoniyatlar taqdim etuvchi qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kafolatlar tizimini tushunadilar"¹⁶.

Yuqorida bayon qilingan qarashlarga quyidagi talqinni hamohang deyish mumkin: "umumiy holda ijtimoiy himoya ostida jamiyat tomonidan shaxsning asosiy huquqlari, shu jumladan, iqtisodiy huquqlari – mol-mulkka, mehnatga, daromad olishga va ijtimoiy xizmatlarga kafolatlanganligi tushuniladi. Torroq ma'noda ijtimoiy himoya – bu inflyasiya va tovar taqchilligi sharoitida aholi, ayniqsa, uning muhtoj qatlamlari uchun kun kechirishga

9 Кремер М. И. Социальная защита населения и пути ее развития: сборник трудов конференции. // Научное сообщество студентов : материалы XIV Междунар. студенч. науч.-практ. конф. / редкол.: О. Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2017. – С. 224-227. – ISBN 978-5-9500127-0-9.

10 Бедность на троих <https://kommersant.ru/turbopages.org/kommersant.ru/s/doc/4125762>

11 "Quruq gap emas, amaliyot birlamchi". Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofati kimlarga, nima uchun berildi? <https://kun.uz/news/2019/10/18/nobel>

12 Римашевская Н.М. Бедность и маргинализация населения// Социологические исследования. 2004 - №4. С. 34.

13 Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М: РИЦ ИСЭП РАН, 2010. – С.5.

14 Ракитский Б.В. Концепция социальной политики для современной России. – М.: Институт перспектив и проблем страны, 2009. – С.32

15 Тишин Е.В. Социальное обеспечение нетрудоспособного населения: направления и формы совершенствования. – СПб.: ИСЭП РАН, 2018. – С.49.

16 Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М: РАГС, 2017. – С.14.



imkon beruvchi kafolatlardir¹⁷. Mazkur fikrning ijobiy xususiyati shundan iboratki, bunday talqin “ijtimoiy himoya” ma’nosini ham tor, ham keng doirada talqin qilib bergan.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda boshqa mazmundagi, ya’ni “ijtimoiy himoya – bu mehnatga layoqatsiz fuqarolarga: o’z shaxsiy mehnat hissasi, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga o’z farovonligini oshirishga teng sharoitlarni yaratuvchi, mehnatga layoqatsizlar va aholining ijtimoiy zaif qismiga ijtimoiy iste’mol fondlaridan foydalanishda imtiyoz, pensiya, nafaqa va stipendiya sifatidagi bevosita moddiy yordamni ta’minlovchi qonuniy, ijtimoiy, iqtisodiy kafolatlar tizimidir¹⁸ degan ta’rif ham berilgan.

“Ijtimoiy himoya” tushunchasiga V.I.Sherbakov tomonidan “ijtimoiy himoya jamiyatning har bir a’zosi, ayniqsa mehnatga layoqatli aholining huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlarining qonun, ijro bilan chambarchas bog’langan murakkab tizimidir¹⁹, deb ta’rif berilgan. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritishda olim tomonidan ish bilan bandlarning ijtimoiy huquq va kafolatlariga katta e’tibor berib, mehnatga layoqatli bo’lgan hamda bo’lmagan aholining ijtimoiy himoyasi o’rtasiga chegara qo’yadi. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuv turli aholi qatlamlariga ko’rsatiluvchi ijtimoiy himoyani barpo etishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvga A.G.Antipevning fikri ham yaqindir. Olim ijtimoiy himoyani tizimlashgan holatda o’rganadi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ijtimoiy himoya tizimi o’zida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig’indisini mujassamlashtirgan bo’lib, o’z ichiga ijtimoiy kafolat va qonunchilik bilan mustahkamlangan huquqlarni jamlagan. U mehnatga layoqatli fuqarolarga o’z shaxsiy mehnati, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi evaziga o’z farovonligini oshirish uchun teng huquqlarni ta’minlaydi. Aholining mehnatga layoqatsiz va ijtimoiy kuchsiz qatlamiga ushbu tizim bevosita moddiy yordam shaklidagi nafaqa, stipendiya va boshqa to’lovlar, soliqlarni kamaytirish orqali yordam ko’rsatadi²⁰. Biz muallifning “ijtimoiy himoya turli turkumga mansub fuqarolarning ijtimoiy muammolarini bartaraf etishda ularning bir qator xususiyatlarini, yoshi, salomatligi, ijtimoiy mavqei, daromad manbalari, xarajatlar tizimi, o’zgalar yordamiga bo’lgan ehtiyoji va h.k.larni e’tiborga olgan holda farqlanishi lozim” degan fikriga qo’shilamiz. Mazkur xususiyatlarga tayangan holdagina ijtimoiy himoyaning u yoki bu shaklini tanlash, turli ijtimoiy institutlar barpo etish, ijtimoiy himoya tadbirlarini moliyalashtirish manbalarini aniqlash va h.k.larni bajarish lozim bo’ladi. Biroq, bevosita moddiy yordam ko’rsatib ketishning o’zi etarli bo’lmay, mehnatga layoqatsiz bo’lgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimi usullarining salohiyatlarini ham ko’rib o’tish lozim bo’ladi. Bevosita moddiy yordam ko’rsatish, kekxa insonlarning o’z mehnat faoliyati davrida turli iqtisodiy sabablarga ko’ra iqtisodiy etarli bazani yarata olmaganligidan zarur bo’lgandir.

Bunda ijtimoiy himoya faqat moddiy farovonliknigina emas, ayni vaqtda shaxsning iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy maqomi, salomatligi, ruhiy bardamligini ta’minlagan taqdirdagina samarli bo’lishi e’tibordan chetda qoladi. Bundan ijtimoiy himoya moddiy yordam ko’rsatishga qaraganda ancha keng ma’noni ifoda etishi to’g’risida xulosa chiqarish mumkin.

Qozog’istonlik olim B.A.Aubakirov “ijtimoiy himoya” tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Ijtimoiy himoya deganda biz insonning yashash joyi, millati, jinsi, yoshi va boshqa xarakteristikalaridan qat’iy nazar insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va kafolatlariga qaratiladigan hukumat siyosatini tushunamiz²¹.

Ijtimoiy himoyani bu qadar keng talqin etish orqali uning ichiga shaxsning mulkka egalik qilishdan to shaxsiy himoya va ekologik xavfsizlik singari barcha konstitusion huquq va erkinliklarini kiritishimiz mumkin bo’ladi.

Qirg’izistonlik olim K.A.Atishov ijtimoiy himoya deganda, “....fuqarolarning huquq va iqtisodiy kafolatlarini, barcha darajadagi boshqaruv organlari, boshqa institutlar, shuningdek umumrivojlanish shartlarida aholiga ijtimoiy qoniqarli hayot tarziga erishishga ko’maklashuvchi ijtimoiy xizmatlar tizimining moliyalanganlik darajasini qonun bilan kafolatlanganligini nazarda tutadi. Ijtimoiy himoya bu insonning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, kafolatlarining bajarilishi va amalga oshirilishi erkinligidir. Ijtimoiy himoya fuqarolarga zaruriy hayot darajasi va hayot sifatini ta’minlaydi²². Muallif ijtimoiy himoyaga bozor munosabatlari natijasida vujudga keluvchi, ijtimoiy xatar omillarini yumshatuvchi unsurlarni: ijtimoiy sug’urta, pensiya ta’minoti, kam ta’minlanganlik uchun moddiy yordam, aholining iste’mol va xarid qobiliyatlarining oshirilishi, daromadlarining indeksasiyasi, ishlab chiqarishning oshishiga imkon yaratuvchi davlat tomonidan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish harakatlarini kiritishadi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy, iqtisodiy hatto sanoat unsurlarini bir tushuncha ostida birlashtirish, davlat tomonidan ishlab chiqarishga ijtimoiy yordam ko’rsatish tizimi va dasturida band bo’lgan ijtimoiy xodimlarni chalg’itadi.

17 Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2014.- С.19.

18 Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – М.: Дашков-К, 2017. – С. 4-5.

19 Шербakov В.И. Социальная защита работника. – М.: Экономика, 2018. – С.42.

20 Антипов А.Г. Оценка эффективности деятельности учреждений социальной поддержки населения. – М.: Инфра-М, 2019. – С.34.

21 Б.А.Аубакиров. Общая экономическая теория: Учебник / Отв. ред. и сост.— Алматы, 2015. – С.177.

22 Атышов К. Мы меняем мир ... : Цифры и факты. - Бишкек, 2019. - С.195.



“Ijtimoiy himoya” tushunchasiga Tojikistonlik olim Sharif Rahimzoda tomonidan quyidagicha ta’rif berilgan: “aholining ijtimoiy himoyasi – bu qonun yo’li bilan mustahkamlangan huquq va ijtimoiy kafolatlarni ta’minlovchi tizimlar majmuasidan tashkil topgan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit yig’indisidir. Bunday ijtimoiy himoya xodimlarga o’z mehnat hissasi evaziga, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik hisobiga shaxsiy turmush darajasini yuksaltirishga teng sharoitlar yaratadi, mehnatga layoqatsizlarga va ijtimoiy zaif aholiga esa – nafaqa, stipendiya, soliq miqdorini kamaytirish sifatidagi bevosita moddiy yordam shaklidagi ma’lum imtiyoz va madad taqdim etadi”²³. Mazkur ta’rif doirasida aholining ijtimoiy himoyasini davlat tomonidan aholiga kun kechirish va faoliyat ko’rsatishni hamda turmush, shuningdek, iste’mol darajasini ta’minlovchi bevosita maqsadli kafolatlar tizimi sifatida tasvirlash mumkin.

A.V. Vaxabov fikricha, “Bozor iqtisodiyotiga o’tish davrida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashib borishi natijasida aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi davlat tuzilmalarining roli kamayib, ushbu vazifalar bosqichma-bosqich nodavlat, jamoat tashkilotlari, xayriya jamg’armalari, byudjetdan tashqari maqsadli ijtimoiy fondlar zimmasiga o’tkazib boriladi.”²⁴ Ushbu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining manzilliligi darajasi ortib borishidan dalolat beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo’llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni ta’kidlash joizki, qator qomuslarda ham “ijtimoiy himoya” tushunchasiga berilgan ta’riflar bir-biridan farqlanadi. Masalan, O’zbekiston milliy ensiklopediyasida “ijtimoiy himoya” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui”²⁵, atamalar izohli lug’atida “ijtimoiy himoya – davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va huquqiy kafolatlar yig’indisidir”²⁶.

Shunday qilib, yuqorida ko’rib o’tilgan “ijtimoiy himoya” tushunchasiga bo’lgan yondashuvlardan kelib chiqib, mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik: ijtimoiy himoya – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan muassasalar, ish beruvchilar va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, aholining ijtimoiy zaifligini oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan o’zaro bog’liq bo’lgan huquqiy, iqtisodiy chora-tadbirlar va kafolatlar tizimidir. Ijtimoiy himoya - keng ma’noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora tadbirlar majmui; tor ma’noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan etarli ta’minlanmagani tufayli yordamga, ko’makka muhtoj fuqarolar to’g’risidagi g’amxo’rligi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to’xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning mohiyatini ochib berish uchun ijtimoiy muhofaza qilish sub’ektlari va ob’ektlarini, ularga nisbatan munosabatlar tarkib topishiga qarab ajratib olish muhim uslubiy ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy himoya ob’ektlarini aniqlashda, uni tadqiq etish mantiqi bir nechta jihatlariga asoslangan. Xususan, ijtimoiy himoya qilishning birinchi galdagi ob’ektlarini ajratib olishda qo’llaniladigan mezonlarni aniqlashda bu mezonlar aholini muayyan tabaqasining turmush sharoitiga qandaydir salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omil yoki omillar guruhini aks ettirishini hisobga olish birlamchi nuqtadir. Shu orqali ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilinmagan yoki ijtimoiy jihatdan nochor, umuman jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga ajratish imkoniyati tug’iladi. Bunda asosiy mezonlar sifatida, bir tarafdin, oilaning har bir a’zosiga to’g’ri keladigan o’rtacha oylik daromad miqdori hamda uning qonun bilan o’rnatilgan eng kam normativ miqdoriga nisbati, ikkinchi tarafdin – tirikchilik uchun vositalar manbai yoki mehnatga layoqatlilik mezoni namoyon bo’ladi. Bu mezonlar jamlanma tarzda kam ta’minlanganlik holatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlarini ajratish imkonini beradi.

23 Шариф Раҳимзода. Новые условия назначения и выплаты пособий по социальному страхованию. – М.: Дело и сервис, 2017. – С.172.

24 Вахабов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003 – 6-7 б.

25 Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – №4 – Б.604-605.

26 Ижтимоий ҳимоя: атамалар изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – Б.167.



Aholini ijtimoiy himoya – ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi. U fuqarolarga muayyan turmush darajasini kafolatlaydigan kompleks choralar va institutlarni qamrab oladi.

Umuman, ijtimoiy siyosat va uning tarkibiy qismi sifatidagi ijtimoiy himoya ikki o'zaro bog'liq: ilmiy-tadqiqiy va amaliy-tashkiliy xususiyatga ega. Ijtimoiy himoya – ijtimoiy siyosat funksiyasini amalga oshirishning vositalaridan biridir, ijtimoiy siyosat, esa ijtimoiy himoyaning negizidir. Ularning yaxlitligi va farqlanishi huddi shundadir. Ijtimoiy siyosat faqat ijtimoiy himoya uchun emas, balki umuman ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun negizdir, u ko'proq barqarorlikka, ijtimoiy himoya esa, ko'proq o'sish, harakatchanlikka egadir. Ijtimoiy himoya mohiyati, shakli va usullarining amalga oshishi to'raligicha ijtimoiy siyosat bilan belgilanadi. Ayni paytda faoliyati aholining muhtoj qatlamlari va guruhlar, alohida fuqarolar, umuman butun aholini qo'llab-quvvatlash, yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy himoya ijtimoiy siyosat, uning yo'nalishlari, maqsadi va vazifalariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijtimoiy himoyaga aholining ijtimoiy nochor guruhlariga yordam ko'rsatish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qaraladi. Biroq, ijtimoiy himoyaga ayrim shaxslar, guruhlar, qatlamlar turmushidagi salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan faoliyat sifatida ham qarash lozim, umuman olganda, profilaktika ishlari ijtimoiy himoyada katta o'rin egallashi darkor. Ijtimoiy siyosat ham shunga qaratilishi zarur. Ijtimoiy kasalliklarni nafaqat davolash, balki ularning oldini ola bilish ham kerak. Shuning uchun, masalan, ishsizlarga yordam ko'rsatibgina qolmasdan, ishsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'rish, fuqarolarni o'qitish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish joylarini yaratish, u yoki bu korxona, muassasalar faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish va hokazolar qilish lozim. Shunday qilib, ijtimoiy himoya muammolarning oldini olish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Соцэкгиз, 1962. – С. 73-75.
2. Мальтус Т.Р. Опыт закона о народонаселения. Мировая экономическая мысль. Сквоз призму веков. В 5 томах. Т.1. От зари цивилизации до капитализма.-М.Мысль, 2004. – С.410-420.
3. Прудон П.Ж. Бедность как экономический принцип. М. 1998. – С. 10.
4. Fisher M.G. Mollie Orshansky: Author of the Poverty Thresholds / M.G. Fisher // AMSTAT NEWS. – 2008.– September – P. 15-18. Режим доступа –<http://www.amstat.org/about/statisticianhistory/bios/OrshanskyMollie.pdf>
5. Townsend P. Poverty in the United Kingdom. Berkeley: Univ. of California, 1979. – P. 31.
6. Handbook for sociology teachers / R.Goom, P.McNeill (eds.). London: Heinemann Educational Books Ltd., 1982. – P. 129
7. Кремер М. И. Социальная защита населения и пути ее развития: сборник трудов конференции. // Научное сообщество студентов : материалы XIV Междунар. студент. науч.–практ. конф. / редкол.: О. Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2017. – С. 224-227. – ISBN 978-5-9500127-0-9.
8. Бедность на троих <https://kommersant-ru.turbopages.org/kommersant.ru/s/doc/4125762>
9. "Quruq gap emas, amaliyot birlamchi". Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofati kimlarga, nima uchun berildi? <https://kun.uz/news/2019/10/18/nobel>
10. Римащевская Н.М. Бедность и маргинализация населения// Социологические исследования. 2004 - №4. С. 34.
11. Римащевская Н.М. Социальная защита населения. – М: РИЦ ИСЭП РАН, 2010. – С.5.
12. Ракитский Б.В. Концепция социальной политики для современной России. – М.: Институт перспектив и проблем страны, 2009. – С.32
13. Тишин Е.В. Социальное обеспечение нетрудоспособного населения: направления и формы совершенствования. – СПб.: ИСЭП РАН, 2018. – С.49.
14. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М: РАГС, 2017. – С.14.
15. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2014.- С.19
16. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – М.: Дашков-К, 2017. – С. 4-5.
17. Шербаков В.И. Социальная защита работника. – М.: Экономика, 2018. – С.42.
18. Антипов А.Г. Оценка эффективности деятельности учреждений социальной поддержки населения. – М.: Инфра-М, 2019. – С.34.
19. Б.А.Аубакиров. Общая экономическая теория: Учебник / Отв. ред. и сост.– Алматы, 2015. – С.177.
20. Атышов К. Мы меняем мир ... : Цифры и факты. - Бишкек, 2019. - С.195.
21. Шариф Рахмизода. Новые условия назначения и выплаты пособий по социальному страхованию. – М.: Дело и сервис, 2017. – С.172.
22. Вахабов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарк, 2003 – 6-7 б.
23. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – №4 – Б.604-605.
24. Ижтимоий ҳимоя: атамалар изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – Б.167.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>